


131. Eyler-Venn diagrammasi

Yondosh mavzu:
stol o'yinlari.


To'plam, to'plamlar elementlari,
elementlar miqdori.



1. O'yinda qanday shaxmat donalari ishtirok etmoqda? Qaysilari allaqachon o'yindan chiqib ketgan?



To'plamlar qulaylik uchun ichida elementlari belgilangan shakllar ko'rinishida tasvirlanadi. Bunday shakllar bir-biriga bog'liq bo'lmagan to'plamlarni tasvirlash qoidasini ishlab chiqqan ikki matematik: Jon Venn va Leonardo Eyler sharafiga **Eyler-Venn diagrammasi** deb ataladi.



$$A = \{4; 5; 6; 7; 8; 9\}$$

$$6 \in A$$

$$36 \notin A$$





2. Har bir to'plam qanday elementlardan tashkil topgan? Nima uchun ba'zi elementlar bu to'plamlar chegarasidan tashqarida joylashgan?



131. Eyler-Venn diagrammasi



3. To'plamlarni ularning elementlarini sanab o'tish bilan yozing. Har bir to'plam qanday umumiy alomatlariga ko'ra yig'ilgan?



4. Tenglamalarni yeching. Tenglamalarning ildizlaridan M to'plam hosil qiling. Bu to'plamni Eyler-Venn diagrammasi yordamida tasvirlang.

$$x + 56 = 82$$

$$t \cdot 4 = 500$$

$$y - 45 = 18$$

$$m : 5 = 26$$

$$123 - z = 45$$

$$800 : n = 4$$



5. Hisoblang. Quyida surati berilgan shaxslarning familiyalarini toping.

A $567\,823 + 98\,430$

V $990\,000 - 904\,563$

E $210\,600 : 50$

Y $6\,012 \cdot 4$

L $43\,508 + 34\,592$


N $650\,205 - 645\,670$

R $434\,592 : 9$

S $295 \cdot 60$



4212	24048	78100	4212	48288
------	-------	-------	------	-------



85437	4212	4535	4535
-------	------	------	------

131. Eyler-Venn diagrammasi



6. Maktabga 45ta shaxmat to'plami sotib olindi. 15ta to'plam shaxmat to'garagi xonasiga qo'yildi, qolganlari esa 10ta boshlang'ich sinfga teng taqsimlandi. Har bir sinf nechtdan shaxmat to'plami olgan?



7. Kvadratning tomonlari uzunligi teng tomonli yigirmaburchakning tomonlari uzunligiga teng. Kvadratning perimetri 12cm. Yigirmaburchakning perimetrini toping.



8. Madina maktabga stol o'yinlarini olib kelmoqchi. Uning uyida domino, lotto, shashka va shaxmat bor. Madina ikkita o'yinni necha usulda tanlashi mumkin?



9. 0, 7, 8 raqamlaridan tashkil topgan barcha uch xonali sonlar to'plamini yozing, bunda
a) sonda raqamlar takrorlanmaydi;
b) sonda raqamlar takrorlanadi.



10. 1 raqamini o'z ichiga olgan ikki xonali sonlardan iborat A to'plam uchun Eyler-Venn diagrammasini tuzing.



11. Jadval bo'yicha masala tuzing va uni yeching.

	Bitta qutida	Qutilar miqdori	Jami kubiklar
1-to'plam	12 ta kubik	6 ta	
2-to'plam	16 ta kubik	shuncha	
Jami			?